

YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG "ASARI TILI VA NUSXALARI HAQIDA

Nuriddinova Muhtaram

CHDPU talabasi 2- bosqich talabasi.

Murotova Nafisa

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola orqali Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining morfologik shakllari hamda uning nusxalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'atit turk", nusxa, shakl.

Kirish. Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari 1069-1070-yillarda yozilgan. Shoirning o'zi aytganiday bu kitob "Boshdan oxirigacha donorlar so'zi

Go'yoki tizilgan marjondek o'zi" Asar o'n sakkiz oy- bir yarim yilda yozib tugallangan. Shoir haqida birorta ham ma'lumot yo'q. Faqatgina shoir ushbu asarida nomini eslatib o'tadi. Asar Tavg'och Bug'roxonga atab yozilgan. Shoir asarni Tavg'achxonga tortiq etganda, unga "Xos Hojib" ya'ni eshik og'asi lavozimiga tayinlaydi. Asar janri jihatidan davr uchun yangilik bo'lgan. Asar pandnoma ruhida yozilgan. Bu esa o'sha davr uchun yangilik sanalgan. Asar aruz vaznining mutaqorib bahrida yozilgan.

Shoir o'sha davr tilida bo'lgan turli xil morfologik shakllarni yangi so'zlarda qo'llab, ularni tilda yangi hodisa sifatida tanitishga, umumlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Masalan: Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida -chi affiksi shaxs oti yasovchi vazifasida kelgan bo'lsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida bu affiks o'zgacha shaklda boshqa vazifani ham bajargan. Masalan:

Ozunchig uzungdan yiroq tut saqin. Bu keltirilgan misolda -chi affiksi bilan kelgan soʻz ozunchi soʻzi alohida xarakterli, ezma odam maʼnosida kelgan. Bunda tashqari -gu, -gʻu, -ni, -qu affikslari "Devoni lugʻati turk" asarida tor maʼnoda qoʻllangan boʻlsa, "Qutadgʻu bilig" asarida aksincha bu affikslar oʻnlab maʼno yasash vazifasida keltirilgan. Bundan tashqari asarda forscha soʻzlarga nisbatan arabcha soʻzlar keng qoʻllangan. Masalan: Yusuf, Muhammad, mamlakat, madrasa, adolat, namoz, davlat kabi soʻzlar. Asarda oz boʻlsa ham forscha soʻzlar ishlatilgan. Misol uchun : bozor, tuxum, pul, osmon, doʻst, goʻshkabi soʻzlar. Qutadgʻu bilig" qoʻlyozmasining uchta nusxasi boʻlib, fanga birinchi bor eski uygʻur-turk yozuvidagi nusxasi maʼlum boʻlgan. Bizga maʼlumki, eski uygʻur-turk yozuvi arab yozuvi bilan baravar ravishda VII asrdan boshlab XVIII asrgacha qoʻllangan. Qoraxoniylar davlatida ham, undan keyingi turkiy davlatlar tarixida ham bu yozuvning mavqei katta edi. "Qutadgʻu bilig"ning hijriy 843 (milodiy 1439) yili Hirotda eski uygʻur-turk yozuvida Hasan Qora

Sayil Shams tomonidan koʻchirilgan nusxa Turkiyaning Tugot shahriga keltirildi. Bu yerdan esa hijriy 879 (milodiy 1474) yili Fanari oʻgʻli Kadi Ali Istambulga Abdurazzoq Shayxzoda baxshiga olib keldi. Bu nusxani mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgstall Istambulda sotib olib, Vena saroy kutubxonasiga keltirdi. Shundan soʻng bu asar haqidagi dastlabki maʼlumot va undan baʼzi namunalar 1823-yili fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee tomonidan "Journal Asiatique"da nashr etildi. 1870-yili venger olimi Vamberi "Qutadgʻu bilig"ning eng muhim qismlarini "Uygʻur tili obidalari" va "Qutadgʻu bilig" nomi bilan nashr qildi va nemis tiliga tajimasini berdi. 1896-yili "Qutadgʻu bilig"ning arab yozuvida koʻchirilgan ikkinchi nusxasini Qohirada V.V.Radlov topdi. V.V, Radlov eski uygʻur-turk yozuvidagi nusxa bilan Qohira nusxasini qiyosiy oʻrganib, 1910-yili "Qutadgʻu bilig"ning mukammal transkripsiyasi va nemis tiliga tarjimasini nashr ettirdi.

"Qutadgʻu bilig"ning uchinchi nusxasi arab yozuvida koʻchirilgan boʻlib, bu nusxa haqida ilk bor 1914-yili Zaki Validiy xabar berdi. U asaming arab yozuvidagi

bir nusxasi namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli odamning shaxsiy kutubxonasida borligi haqida yozgan edi. Abdurauf Fitrat 1924-yili Muhammadhoji Eshon Lolareshdan bu nusxani olishga muvaffaq bo'ldi. Oradan bir yil o'tgach, "Maorif va o'qitg'uvchi" jumalida "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqida Fitratning maqolasi bosilib chiqdi. 1928-yili esa bu asaming ayrim parchalarini izohlar bilan nashr qilindi. "Qutadg'u bilig"ning tuzilishi, janr xususiyatlari. Qo'shiq janri. Asarning har uchala nusxasini qiyoslash orqali uning tuzilish tartibi.

Quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi:

Unvon (basmala)dan so'ng qisqa nasriy muqaddima kelib, bunda Tangriga hamd, yalavoch (payg'ambar)ga va as'hobi nabi (chahor yor-lar)ga na't aytiladi. So'ngra kitobning qimmatini, uning nomi (yuqorida turli mamlakatlarda turlicha nomlari keltirildi), xonga tortiq qilingani, muallifga Xos Hojib unvoni berilgani, asarda to'rt ramziy qahramonga turkcha nom qo'yilgani, kitobda shu to'rt qahramon o'rtasida savol-javob va munozaralar bo'lib o'tgani haqida qisqacha bayon beriladi. Nasriy muqaddima tugagach, 77 baytdan iborat she'riy muqaddima keladi. So'ngra 73 fasl nomining mundarijasi (fihristi) berilib, undan keyin yana unvonga va mavzuga o'tiladi. 73 ta faslning dastlabki o'n bittasi debochadan iborat bo'lib, an'anaviy hamd, sano, na't, Qoraxonga madh, yetti kavokib va o'n ikki burj, tilning foydasi, kitob egasining uzri, ezgulik, bilim va uquvning foydasi, kitob qahramonlariga nom berilishi va qarilikka o'kinishdan iborat. O'n ikkinchi fasldan bevosita voqealar bayoniga o'tiladi. "Qutadg'u bilig"ning tuzilishi o'ziga xos, takrorlanmas. Yusuf Xos Hojib har bir faslda bir masalani qo'yadi. Masala batafsil bayon qilinadi. Bayon tugagach, yakunlovchi bir bayt keltiriladi. Yakunlovchi baytdan so'ng Yusuf shoiming, ya'ni o'zining donishmandona bir to'rtligini keltiradi. Shu tariqa fikr yakuniga yetadi. Shundan keyin yana bir faslda sarlavha sifatida bir masala qo'yiladi va yuqoridagiday tartibda davom etadi. Yusuf bu asarining tuzilishini she'riy muqaddima so'ngida shunday ifodalaydr.

Bu turkcha qoshuqlar tuzattim sanga, O'qirda unutma dua qil manga.

(Senga bu turkcha qo'shiqlami tartib berdim, O 'qiganingda meni unutmasdan (haqimga) duo qilgin.)" Qutadg'u bilig " O'zbekistonda to'liq holda 1971-yilda nashr etilgan. Bu nashr filologiya fanlari nomzodi Qayumjon Karimov tomonidan amalga oshirilgan. Unda asar matni traskripsiyada berilib, o'zbekcha ilmiy tavsifi ham ilova qilingan edi.

Xulosa. Asarda shoir fikri go'zal obrazlar, hayotiy o'xshatish va lo'nda istioralar, ta'sirchan tahsil hamda mo'zaj ramzlar bilan ziynatlangan. Yusuf Xos Hojib asarda so'z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik his etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Yusuf Xos Hojib " Qutadg'u bilig " Toshkent " O'zbekiston" 2019.*
2. *Nasimxon Rahmonov "O'ZBEK ADABIYOTI TARIX (Eng qadimgi davrlarda XVasrning birinchi yarimigacha) O'quv qo'llanma. "Sano-standar" nashriyoti Toshkent 2017.*
3. *U. Tursunov, B. O'rinboyev, A. Aliyev O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent " O'qituvchi" 1995.*